# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

**№2**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026**
fevral



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*



ISSN: 3060-463X

*Elektron nashr, 614 sahifa.*
*2026-yil, fevral*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Botirali Roxataliyevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI....26
Madaminov Bekzod Allayarovich

“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI....32
Shukurillaev Jahongir Botir o‘g‘li

HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO‘YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH....37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ....42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли

ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН....48
Бекзод Умматов

ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА....55
Вахидов Азизжон Саиджонович

SUG‘URTA FAOLIYATIDAGI MOLIYAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI....58
Xalikulova Shirin Utkir qizi

“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI....62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna

XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJRIBASI....66
Alimardonov G‘ayratjon Nuraliyevich

XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH....72
Xolikov Ravshan Anvar o‘g‘li

PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH....76
Obidova Zilola Ikromjon qizi

HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH....81
Nomurodova Farangiz Lazizovna

AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI....87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich

YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI....92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOYILLARI....96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich

УПРАВЛЕНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫМИ КОММУНИКАЦИЯМИ В ПРОЕКТАХ ....101
**Носирова Гулираъно Абдулазиз кизи**

DAVLAT BUDJETI JARAYONIDA MONITORING VA MOLIYAVIY NAZORATNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI ....107
**Yax'yayeva Dilfuza Bagdatovna**

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA KICHIK KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH .... 111
**Axmedov Sanjar Temur o'g'li**

RAQAMLI MOLIYA TEXNOLOGIYALARI EVOLYUTSIYASINING ISTIQBOLLI YO'NALISHLARI VA YUZAGA KELISHI MUMKIN BO'LGAN XATARLAR TAHLILI ....117
**Ko'chimov Jahongir Shuxrat o'g'li**

GAZ VA GAZ KONDENSATINI YIG'ISH VA TAYYORLASH TIZIMLARI UCHUN ZAMONAVIY LOYIHALASH USULLARI TAHLILI ....123
**Abdirazakov Akmal Ibragimovichб Namozov Og'abek Maxmud o'g'li**

AGILE PROJECT MANAGEMENT IN THE DIGITAL ERA: STRATEGIES, FRAMEWORKS, AND BEST PRACTICES FOR SUCCESS ....128
**Utkirova Maftuna Murodjon qizi**

O'ZBEKISTON EKSPORTYOR KORXONALARINING YANGI BOZORLARGA CHIQISHIDA FAOL MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH HOLATI VA MUAMMOLARI ....134
**Baqoyev Sunnatillo Burxon o'g'li**

TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ....139
**Salaydinov Shodiyor Nizom o'g'li**

TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY JIHATLARI ....144
**Qurbonov Jasurbek Pozilovich**

OPTIMIZATION OF ROADSIDE AUTO CAMPING SITES (REST AREAS) ON HIGHWAYS USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE: INFRASTRUCTURE GAPS AND CORRIDOR-BASED EVIDENCE FROM UZBEKISTAN ....150
**Akramov Akbarjon Akmal ugli**

QURILISH KORXONALARIDA INNOVATSION MARKETING YONDASHUVLARINING AHAMIYATI ....156
**Aminov Abbos Mo'minboy o'g'li**

XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA AHOLI ISH BILAN BANDLIGI SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR ....160
**Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich**

MINTAQADA XUSUSIY TIBBIYOT MUASSASALARIDA MARKETING STRATEGIYASI ....165
**Yakubov Temur G'anibekovich**

AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLAR TIZIMI ....169
**Siroj Zarina Rustambekovna**

AXBOROT MAHSULOTLARI BIZNESINING YAIM VA BANDLIKKA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL ....176
**Abdullayev Abdulla Fayzulla o'g'li**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMINI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI ....181
**Ziyodullayev Qahramon**

ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТЬ: ПОЛЬЗА ДЛЯ ЭКОНОМИКИ И ЭКОЛОГИИ ....185
**Хамдамова Гавхар Абсаматовна**

O'ZBEKISTONDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISHNING MOLIYAVIY VOSITALARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI ....191
**Mamatov Baxodir Quldoshovich**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

KO'P QIRRALI VALLARNING SHAKLLANTIRISH METODLARI VA USULLARINI TAHLIL QILISH ....197
**Xasanov Bobirmirzo Maxmudali o'g'li, Valixonov Dostonbek Azim o'g'li, Alibekov Rasulbek Qanotbek o'g'li**

MINTAQA SANOATINING TARKIBIY TRANSFORMATSIYASI VA UNNING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH ....205
**Abdinazarov Xusan Shaymanovich**

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SUG'URTA BOZORINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ....209
**Nomozova Qumri Isoyevna**

XALQARO STANDARTLAR TALABLARI ASOSIDA AUDITORLIK TEKSHIRUVINI TASHKIL ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI....216
**Akromov Shohrux Shuhrat o'g'li**

QASHQADARYO VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHNI TARTIBGA SOLISH TIZIMI ....221
**Achilova Firuza Kurbanovna**

BANK MENEJMENTIDA INKLYUZIV MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI, TAMOYILLARI VA STRATEGIK AHAMIYATI ....225
**Rajabov Oybek Panjievich**

MINTAQADA OLIY TA'LIM TIZIMINING ISHSIZLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH....229
**Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li**

MAISHIY XIZMATLAR SOHASIDA INNOVATSION KLASTER MODELINI JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI....235
**Normurodova Zebo Eshmaxmatovna**

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH ....240
**Xatamov Nurbek Ochildiyevich, Sharifi Abdul Fatah**

MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNING AMALDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI YECHIMI YUZASIDAN TAKLIFLAR....245
**Pardayev Jamshid Muzaffarovich**

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIK RISKLARINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI....251
**Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li**

O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH....257
**Karimov Shohruh Boydulla o'g'li**

"O'ZBEKISTON TEMIR YO'LLARI" AKSIYADORLIK JAMIYATINING HISOBOTLARINI XALQARO STANDARTLARGA TRANSFORMATSIYA QILISH....262
**Astanov Zafar Murodillayevich**

QARAMA-QARSHI AYLANUVCHI IKKI ROTORLI SHAMOL TURBINASINING MATEMATIK MODELI ....266
**Pirmatov Nurali Berdiyarovich, Bekishev Allabergen Yergashevich, Saodullayev Abror Saypullayevich, Qurbonov Najmiddin Abduxamidovich**

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHNING INSTITUTSIONAL VA INVESTITSION MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ....272
**Norboyev Sarvar Azodovich**

O'ZBEKISTONDA TRANSPORT SOHASIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY AHAMIYATI....277
**Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o'g'li**

ANALYSIS OF UZBEKISTAN'S MAIN ECONOMIC INDICATORS AND GDP GROWTH....283
**B.Beknazarov**

SOTISH JARAYONIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA MARKETING TADQIQOTLARINING INTEGRATSIYASI ....288
*Abduxalilova Laylo Tohtasinovna*

ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТЕ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ: ГЛОБАЛЬНЫЙ И УЗБЕКСКИЙ КОНТЕКСТ ....294
*Мегноров Алмардон Абдирахмонович*

RISK MANAGEMENT STRATEGIES IN UNCERTAIN ECONOMIC ENVIRONMENTS: A GLOBAL COMPARATIVE STUDY ....302
*Nigmatova Malika*

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI....307
*Hamrayev Maqsudjon Saidaxmadovich*

BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH MASALALARI....311
*Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi*

АВТОМАТИЗАЦИЯ АУДИТОРСКИХ ПРОЦЕДУР НА ОСНОВЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ: ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО АУДИТОРСКИХ ЗАКЛЮЧЕНИЙ ....316
*Киличева Ф.Б.*

MAISHIY TEXNIKA EKSPORTIDA YASHIL IQTISODIY SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ....320
*Kushmanova Mahbuba*

GAZ TA'MINOTIDA YO'QOTISHLARNI KAMAYTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI ....324
*Xamidov Xayriddin Faxritdinovich*

DAVLAT AKTIVLARINI XUSUSIYLASHTIRISHNING MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)....329
*Sharapov Farrux Shomuratovich*

КРИТЕРИИ ОТБРАКОВКИ ЭКСТРУЗИОННЫХ АЛЮМИНИЕВЫХ ПРОФИЛЕЙ ГРУППЫ ALMGSI ПО МАКРОСТРУКТУРНЫМ ПРИЗНАКАМ В ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ УСЛОВИЯХ ....333
*Ибрахимов Фаррухжон Фарходович*

AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DEBITORLIK QARZLARI VA FAKTORING OPERATSIYALARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH....336
*G'oziyeva Mokhira Rustamovna*

KULTIVATOR YUMSHATKICH PANJALARI O'TMASLANISH DARAJASINING ISH KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI....345
*Quvondiqov Yoqub Tursunbaevich, Nuraliyev To'lqin Alimardanovich*

SANOAT KORXONALARINI BOSHQARISHDA INNOVATSION STRATEGIYANI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR ....352
*To'g'onov Ibroximxo'ja*

TMK KORXONASI SHAROITIDA R6AM5 MARKALI TEZKESAR PO'LATDAN TAYYORLANGAN PARMA UCHUN TERMIK ISHLOV BERISH REJIMI....358
*Djalalova Sevara Toxtamuratovna*

РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ ....362
*Шоев Алим Халмуратович*

TRANSFORMATSIYA VA XUSUSIYLASHTIRISH OMILLARINING BANK SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARIGA TA'SIRI....367
*Umirzoqova Aziza Olim qizi*

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH....372
*Ismatov Raxmatilla Oltinovich*

RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI TADBIRKORLIK SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILI SIFATIDA....376
*Yoqubjonov Ibrohim G'olibjon o'g'li*

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

BANK TIZIMIDAGI AKTIVLARINING UNUMDORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA STRATEGIK YONDASHUVLAR ....379
**Sadikov Q.M.**

СЦЕНАРНОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ЭНЕРГОЭФФЕКТИВНОСТИ ОТРАСЛЕЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ НЕОПРЕДЕЛЁННОСТИ И СТРУКТУРНЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ ....383
**Муслимова Ф.С., Хашимова Н.А.**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLARNI TAQDIM QILISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI ....390
**S.M. Raximova**

YANGI O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARI AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH MODELI....395
**Qurbanova Muazzam Fazliddinovna**

IQTISODIYOTNING TRANSFORMATSIYALASHUVI JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING TAHLILI ....399
**Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA EKSPORTNI RAG'BATLANTIRISH MASALALARI ....404
**Abdug'aniyev Murodjon Shavkat o'g'li**

XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARNING INNOVATSION FAOLIYATINI INVESTITSIYALAR YORDAMIDA QO'LLAB-QUVVATLASH....408
**Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich**

FRANSUZ TILIDA FE'L SEMANTIKASINING KO'PMA'NOLILIK VA BIRMA'NOLILIK ASPEKTLARI ....412
**Jo'rayeva Malohat Muhammadovna, Bekmetova Munisa Karimbayevna**

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTISIYALARDA CHET-EL INVESTISIYASI VA KREDITLARINI ROLI....418
**Sultanov Anvar Abdullaevich**

INSON QON TOMIRLARINING TARMOQLANISHINI L-SISTEMALAR ASOSIDA HOSIL QILISH ALGORITMNI ISHLAB CHIQISH ....423
**Boliyeva Dilrabo Nurbek qizi**

YASHIL IQTISODIYOT LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH)NING AHAMIYATI ....429
**Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li**

NAMANGAN VILOYATIDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI ....434
**Otayor Usmonaliyev**

TIJORAT BANKLARIDA VALYUTA ARBITRAJI VA UNING MOHIYATI....440
**Yaxyayev Ziyodilla Lutfullayevich**

TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN ALOQA SOHASINI MOLIYALASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI....443
**Mirzaraximova Aziza Azimdjanovna**

DON VA UN MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH KORXONALARIDA MARKETING FAOLIYATINI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI....450
**Boyjigitov Sanjarbek Komiljon o'g'li**

SURXONDARYO VILOYATIDA TUXUM ISHLAB CHIQARISHNING JORIY HOLATI TAHLILI ....454
**Ismoilov Zuhriddin Sayitqulovich**

ZAMONAVIY TURAR-JOY ME'MORCHILIGIDA MILLIYLIK VA AN'ANAVIYLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI ....459
**Toshniyozov Otabek Hakimovich**

MARKAZIY QIZILQUM FOSFORIT RUDALARIDAN QIMMATBAHO KOMPONENTLARNI KOMPLEKS AJRATISH TEXNOLOGIYASI ....464
**Eshonqulov Uchqun Xudaynazar o'g'li, Ruzibayeva Dildora Akramovna, Xushvaqtova Dilshoda Shavkat qizi**

BANKLARDA CHAKANA KREDITLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH TARTIBI ....................470
Axmedova Dilrabo Kurbondurdi qizi

TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASHNING XALQARO MODELLARI HAMDA ULARNING AMALIY AHAMIYATI ....................476
Nodirbek Shavkatovich Mirzaaxmedov

DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA XOTIN-QIZLARNING BOSHQARUV KARYERASI: MOHIYATI, ZARURIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI ....................483
Abduraxmonova Feruzabonu

ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISHNING RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR TAJRIBALARI ....................489
Xoshimov Sobir Murtazayevich

QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATINING TASHKILIY TUZILMASINI OPTIMALLASHTIRISH ....................495
Uzakova Umida Ruziyevna

OLIY TA'LIMNI MOLIYALASHTIRISH SAMARADORLIGI VA PROFESSOR-O'QITUVCHI–TALABA NISBATI O'RTASIDAGI IQTISODIY BOG'LIQLIK....................502
Dusanov Salim Mamarasulovich

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ВНЕДРЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СИСТЕМЫ AML: АНАЛИЗ ПРАКТИК ВЕДУЩИХ БАНКОВ И СТРАН СНГ ....................507
Рашидов Авазбек Рахимович

BOJXONA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHDAGI MAVJUD MUAMMOLAR TAHLILI ....................516
Radjapova Latofat Sardorovna

DEFORMATSIYALANUVCHAN STANDART CHIZIQLI QATTIQ (STANDARD LINEAR SOLID MODEL, SLS) MODEL ISHLAB CHIQISH VA SONINI TAHLIL QILISH ....................523
Ahmadov Ilhom Aktam o'g'li, Faxriddinova Rayhona Vahobjon qizi, Rustamova Ruxsora Kamtar qizi

ВЛИЯНИЕ КЕРАМИЧЕСКИХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ НА ТЕПЛОВУЮ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КАМЕННОГО ТЕПЛОАККУМУЛЯТОРА В СОЛНЕЧНО-АССИСТИРОВАННЫХ БИОГАЗОВЫХ УСТАНОВКАХ ....................530
Д.М. Жураханов

O'ZBEKISTONDA ISLOMIY MOLIYA TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING KELAJAKDAGI IMKONIYATLARI....................537
Akbarov Husniddinjon Mo'ysin o'g'li

MAHALLIY BUDJETLARNI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA OCHIQLIKNI KUCHAYTIRISH ....................544
Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Normatov Joxongir Murodillayevich

DON MAHSULOTLARI TARMOG'IDA ISHLAB CHIQARISH QUVVATLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ....................548
Aipova Iroda Ikramovna

BUXORO VILOYATI SANOATI ISHLAB CHIQARISHINING TARMOQ TARKIBI DINAMIKASI VA UNDAGI O'ZGARISHLAR TAHLILI ....................554
Toshov Mirzabek Hakimovich

TEMIR YO'L TRANSPORTINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH MEZONLARI ....................560
Nurxo'jayeva Xilola Hakimxo'jayevna

СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ УГОЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТЬЮ НА ОСНОВЕ УСТОЙЧИВОСТИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА....................568
Teshaboyev To'lqin Zakirovich, Muradov Botir Xayat

IQTISODIYOT TARMOQLARIDA SUV ISTE'MOLINING BOSHQARUVINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY JIHATLARI ....................578
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Turg'unov Muhammadaziz Baxtiyorjon o'g'li

SUV RESURSLARINI BOSHQARISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA MOBIL ILOVALAR ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH MEXANIZMLARI....................584
Karimov Anvarjon Muqumjonovich, Uzakov Sirojiddin Djuraboyevich

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

SUN'IY INTELLEKT VA IQTISODIYOTNING O'ZARO ALOQADORLIGI ....591
**Sobirov Abdurasul Abdugafarovich**

IDENTIFICATION OF WEAVING STRUCTURES IN PILE FABRICS ....596
**Bahrom Baturovich Dautov, Bakhtiyor Yormakhmatovich Abduganiyev, Erkin Shamsiddinovich Rayxonov, Nazar Kilichov Bafoevich**

INNOVATIVE APPROACHES TO ENSURING FINANCIAL STABILITY IN COMMERCIAL BANKS....602
**Otajanova Shahnoza Shuhratovna**

AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATI VA OLIY TA'LIM SIFATI KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK MASALALARI....608
**Pirmedova Xayitgul Muxammedovna**



# AXBOROT-RESURS MARKAZLARI FAOLIYATI VA OLIY TA'LIM SIFATI KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK MASALALARI

**Pirmedova Xayitgul Muxammedovna**
Toshkent davlat yuridik universiteti
Axborot-resurs markazi direktori
E-mail: Khaytgul1971@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada axborot-resurs markazlari faoliyati va oliy ta'lim sifati ko'rsatkichlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ARMlarning o'quv va ilmiy resurslar bilan ta'minlash, mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlash, axborot savodxonligi hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishdagi o'rni asoslab beriladi. Shuningdek, ARM faoliyatining ta'lim sifati, ilmiy natijadorlik va ijtimoiy adolatga ta'siri tizimli yondashuv asosida ochib beriladi.

Kalit so'zlar: axborot-resurs markazlari, oliy ta'lim sifati, ta'lim ko'rsatkichlari, axborot savodxonligi, mustaqil ta'lim, raqamli kompetensiyalar, ilmiy faoliyat, ijtimoiy adolat.

Abstract. This article scientifically analyzes the intrinsic link between the activities of information resource centers and indicators of higher education quality. The study substantiates the role of IRMs in providing educational and scientific resources, supporting self-directed learning, and fostering information literacy and digital competencies. Furthermore, the impact of ARM activities on educational quality, scientific productivity, and social justice is revealed through a systematic approach.

Keywords: information and resource centers, higher education quality, educational indicators, information literacy, self-directed learning, digital competencies, scientific activity, social justice.

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ внутренней связи между деятельностью центров информационных ресурсов и показателями качества высшего образования. В исследовании обосновывается роль ИРЦ в предоставлении учебных и научных ресурсов, поддержке самостоятельного обучения, а также развитии информационной грамотности и цифровых компетенций. Кроме того, с помощью системного подхода раскрывается влияние деятельности ИРЦ на качество образования, научную продуктивность и социальную справедливость.

Ключевые слова: информационно-ресурсные центры, качество высшего образования, образовательные показатели, информационная грамотность, самостоятельное обучение, цифровые компетенции, научная деятельность, социальная справедливость.

## KIRISH

Axborot-resurs markazlarining ta'lim jarayonidagi vazifalari ijtimoiy jihatdan ham ahamiyatlidir. Ta'lim resurslariga teng va erkin kirish imkoniyatini yaratish orqali ARMlar ijtimoiy adolatni ta'minlaydi hamda

talabalar o‘rtasidagi imkoniyatlar tafovutini kamaytiradi. Bu vazifa oliy ta’lim sifatining ijtimoiy mohiyatini amalga oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘ylashimizcha, axborot-resurs markazlarining ta’lim jarayonidagi asosiy vazifalari o‘quv va ilmiy axborot bilan ta’minlash, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash, axborot savodxonligini shakllantirish hamda ta’lim sifati va ijtimoiy tenglikni ta’minlashdan iboratdir. Ushbu vazifalarning samarali amalga oshirilishi axborot-resurs markazlarini oliy ta’lim tizimining strategik tarkibiy qismi sifatida qarashga asos bo‘lib, keyingi bo‘limda ularning ta’lim sifati ko‘rsatkichlari bilan o‘zaro bog‘liqligini chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Axborot-resurs markazlari faoliyatini boshqarish va ularning oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga ta’siri masalasi ilmiy adabiyotlarda turli nuqtayi nazardan yoritilgan. Mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlar, avvalo, kutubxona-axborot faoliyatining nazariy asoslari, boshqaruv mexanizmlari va institutsional rivojlanish bosqichlarini tahlil qilishdan boshlanadi.

“Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish” asarida M.X. Maxmudov kutubxona-axborot tizimini boshqarishning tashkiliy, iqtisodiy va metodik jihatlarini kompleks ko‘rib chiqadi. Muallif kutubxonalarni faqat axborot saqlovchi obyekt emas, balki ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida talqin qiladi. U boshqaruv samaradorligi, resurslardan oqilona foydalanish va xizmat ko‘rsatish sifatining ta’lim natijalariga bevosita ta’sirini asoslab beradi. Mazkur yondashuv axborot-resurs markazlarini oliy ta’lim sifatini ta’minlashning muhim institutsional bo‘g‘ini sifatida baholash imkonini yaratadi.

“Vatan kutubxonachiligi tarixi: 1-qism” hamda “Vatan kutubxonachiligi tarixi: 2-qism” asarlarida E. Oxunjonov milliy kutubxonachilik tizimining shakllanish va rivojlanish bosqichlarini tarixiy manbalar asosida tahlil qiladi. Muallif kutubxonalar faoliyatining ijtimoiy-madaniy hamda ma’rifiy vazifalarini ochib berar ekan, ularning ta’lim tizimi bilan uzviy aloqasini ko‘rsatadi. Bu tadqiqotlar axborot-resurs markazlari evolyutsiyasini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

“Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi” asarida E. Axunjanov kutubxonashunoslikning nazariy-metodologik asoslarini keng yoritadi. U axborot jarayonlarini tizimli yondashuv asosida ko‘rib chiqib, kutubxona tizimini ijtimoiy institut sifatida tavsiflaydi. Mazkur konsepsiya axborot-resurs markazlarining ta’lim sifati shakllanishidagi funksional rolini aniqlashda muhim metodologik poydevor vazifasini bajaradi.

Zamonaviy bosqichda kutubxona tizimining innovatsion transformatsiyasi alohida e’tibor markazida turadi. Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion kutubxonalarning ahamiyati metodik qo‘llanmasida innovatsion kutubxonalar ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini oshirishning samarali instrumenti sifatida talqin qilinadi. Mualliflar raqamli resurslar, elektron kataloglar, masofaviy xizmatlar va axborot madaniyatini shakllantirish mexanizmlarining ta’lim samaradorligiga ta’sirini asoslab beradi. Bu yondashuv axborot-resurs markazlarini zamonaviy oliy ta’lim infratuzilmasining ajralmas elementi sifatida ko‘rsatadi.

“Kutubxonachilikning taraqqiyot bosqichlari” maqolasida G.E. Nurqulova kutubxonachilik tizimining tarixiy va zamonaviy bosqichlarini tahlil qilib, raqamlashtirish jarayonlarining soha rivojiga ta’sirini yoritadi. Muallif zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi xizmatlar sifatini oshirish bilan bir qatorda foydalanuvchilarning axborotga bo‘lgan ehtiyojini tezkor va samarali qondirish imkonini berishini ta’kidlaydi. Bu holat oliy ta’lim muassasalarida bilim sifati va ilmiy tadqiqotlar samaradorligi oshishiga xizmat qiladi.

Xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham akademik kutubxonalar va ta’lim sifati o‘rtasidagi bog‘liqlik keng o‘rganilgan. Masalan, International Federation of Library Associations and Institutions tomonidan ishlab chiqilgan kutubxona xizmatlari standartlarida akademik kutubxonalar ta’lim va tadqiqot faoliyatining strategik hamkori sifatida e’tirof etiladi. Shuningdek, Association of College & Research Libraries tomonidan qabul qilingan “Information Literacy Competency Standards for Higher Education” hujjatida axborot savodxonligi ta’lim sifatining muhim ko‘rsatkichi sifatida belgilangan.

UNESCO hamda OECD hisobotlarida bilimlar iqtisodiyoti sharoitida axborot infratuzilmasining rivojlanishi inson kapitalini shakllantirishning asosiy omillaridan biri sifatida ko‘rsatiladi. Akademik kutubxonalar va axborot-resurs markazlari aynan shu infratuzilmaning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ular talabalarning tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini shakllantirish hamda ilmiy axborotdan samarali foydalanish darajasini oshirish orqali oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, milliy va xalqaro tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, axborot-resurs markazlari faoliyati ta’lim jarayonining mazmuniy, tashkiliy va metodik jihatlari bilan uzviy bog‘liq. Biroq mavjud adabiyotlarda ko‘proq nazariy va tarixiy masalalarga e’tibor qaratilgan bo‘lib, axborot-resurs markazlari faoliyati va oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi aniq empirik bog‘liqlikni kompleks baholash masalasi yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur holat ushbu yo‘nalishda chuqurroq ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini asoslaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada nazariy va taqqoslovchi tahlil, normativ hujjatlarni o‘rganish hamda empirik misollar metodlari qo‘llanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Axborot-resurs markazlarining ta’lim jarayonidagi asosiy vazifalari ularning oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlariga bevosita va bilvosita ta’siri orqali namoyon bo‘ladi. ARMlar tomonidan bajariladigan funksiyalar ta’lim jarayonining resurs bilan ta’minlanganligi, jarayonning samaradorligi hamda yakuniy natijalarning sifat darajasini belgilovchi muhim omil hisoblanadi [1]. Shu bois ARM faoliyatini ta’lim sifati ko‘rsatkichlari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilish oliy ta’lim sifatini oshirish mexanizmlarini ilmiy asoslash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval. Axborot-resurs markazlari faoliyati va oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik[1]

| ARM faoliyati (vazifalari) | Amalga oshirish natijalari | Oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlari |
|---|---|---|
| **O‘quv va ilmiy adabiyotlar bilan ta’minlash** | Fan dasturlariga mos, dolzarb resurslar shakllantiriladi | Ta’lim mazmunining yangiligi va dolzarbligi |
| **Elektron resurslar va ma’lumotlar bazalariga kirishni ta’minlash** | Axborotdan foydalanish imkoniyatlari kengayadi | Mustaqil ta’lim ulushi va o‘zlashtirish darajasi |
| **Talabalarning mustaqil ta’limini qo‘llab-quvvatlash** | Individual ta’lim trayektoriyalari shakllanadi | Talabaning mustaqil ishlash kompetensiyasi |
| **Axborot savodxonligi bo‘yicha trening va maslahatlar** | Axborot bilan ishlash ko‘nikmalari rivojlanadi | Raqamli va axborot kompetensiyalari |
| **Ilmiy-tadqiqot faoliyatini axborot jihatdan ta’minlash** | Ilmiy izlanishlar sifati va faolligi oshadi | Ilmiy faoliyat natijalari va nashrlar sifati |
| **Professor-o‘qituvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash** | O‘quv mashg‘ulotlari sifati yaxshilanadi | Pedagogik jarayon samaradorligi |
| **Ta’lim resurslariga teng kirish imkoniyatini yaratish** | Ijtimoiy tafovutlar kamayadi | Ta’lim sifati va ijtimoiy adolat |
| **Raqamli ta’lim muhitiga integratsiya** | Masofaviy va aralash ta’lim rivojlanadi | Ta’lim jarayonining moslashuvchanligi |

Axborot-resurs markazlari faoliyati oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining deyarli barcha asosiy guruhlari — resurs, jarayon va natija ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi. ARMlarning vazifalari samarali amalga oshirilgan sari ta’lim jarayonining mazmuni boyiydi, talabalarning kompetensiyalari rivojlanadi hamda oliy ta’lim muassasasining umumiy sifat darajasi oshadi. Shu jihatdan, axborot-resurs markazlari oliy ta’lim sifati boshqaruvining muhim institutsional mexanizmi sifatida qaralishi lozim (1-rasm) [4].




1-rasm. Axborot-resurs markazlari faoliyati va oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqligi[2]

1 Muallif ishlanmasi
2 Muallif ishlanmasi

Yuqoridagi grafik asosida axborot-resurs markazlari faoliyatining oliy ta’lim sifati shakllanishidagi o‘rni tizimli ravishda aks ettiriladi. ARMlar tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar ta’lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, yakuniy natijada oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining oshishiga xizmat qiladi. Ushbu bog‘liqlik ARMlarni oliy ta’lim sifatini boshqarishning strategik institutsional mexanizmi sifatida qarash imkonini beradi.

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining barqaror o‘sishi ta’lim jarayonining barcha tarkibiy qismlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni ta’minlashni talab etadi. Ushbu tarkibiy qismlar orasida axborot-resurs markazlari alohida o‘rin egallab, ular ta’lim sifati shakllanishining axborotiy, pedagogik va ijtimoiy asoslarini birlashtiruvchi muhim institut sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim sifati va ARM faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik tasodifiy emas, balki ta’lim jarayonining mazmuni va natijalari bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan qonuniy jarayondir [3].

Avvalo, axborot-resurs markazlari ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining resurs bilan ta’minlanganlik jihatini belgilaydi. O‘quv va ilmiy adabiyotlarning yetarliligi, ularning dolzarbligi va zamonaviyligi ta’lim mazmunining sifatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Agar ARM fondlari fan dasturlari va ta’lim standartlariga mos shakllantirilgan bo‘lsa, o‘quv jarayonida bilimlarning chuqurligi va tizimliligi ta’minlanadi. Shu jihatdan, ARMlar ta’lim sifatining boshlang‘ich va tayanch omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Axborot-resurs markazlarining ta’lim sifati bilan uzviy bog‘liqligi ta’lim jarayonining tashkil etilishida ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Mustaqil ta’lim ulushining oshishi, kredit-modul tizimining joriy etilishi hamda masofaviy ta’lim shakllarining kengayishi talabalarning axborot resurslariga doimiy va qulay kirishini talab etadi. Ushbu ehtiyojni ta’minlash orqali ARMlar ta’lim jarayonining uzluksizligi va moslashuvchanligini oshiradi. Natijada ta’lim jarayonining samaradorligi va talabalarning o‘quv faolligi sezilarli darajada kuchayadi.

Ta’lim sifati va ARM faoliyati o‘rtasidagi bog‘liqlik talabalarning kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida ayniqsa yaqqol ko‘rinadi. Zamonaviy oliy ta’limda bilimdan ko‘ra kompetensiya ustuvor ahamiyat kasb etar ekan, axborotni izlash, tahlil qilish, tanqidiy baholash va undan samarali foydalanish qobiliyatlari ta’lim sifati mezonlarining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda. Axborot-resurs markazlari ushbu kompetensiyalarni rivojlantirish orqali ta’lim sifati natijalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, axborot-resurs markazlari ta’lim sifatining ijtimoiy jihatlari bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ta’lim resurslariga teng va adolatli kirish imkoniyatining yaratilishi talabalar o‘rtasidagi bilim olish sharoitlaridagi tafovutlarni kamaytiradi. Bu esa ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining ijtimoiy adolat, inklyuzivlik va barqarorlik mezonlari bilan uyg‘unlashuviga xizmat qiladi. Shu ma’noda ARMlar oliy ta’lim sifatining nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy mohiyatini ham amalga oshiruvchi institut sifatida qaraladi.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan bog‘liq jihatlarda ham ARMlarning ta’lim sifati bilan aloqasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy manbalar, ma’lumotlar bazalari va elektron jurnallardan foydalanish imkoniyatlari talabalar hamda professor-o‘qituvchilarning ilmiy faolligini oshiradi, bu esa ta’lim jarayonining ilmiylik darajasini kuchaytiradi. Natijada ta’lim sifati ilmiy asoslanganlik va innovatsionlik mezonlari orqali boyiydi.

Fikrimizcha, axborot-resurs markazlarining ta’lim sifati bilan uzviy bog‘liqligi resurs ta’minoti, ta’lim jarayonining tashkil etilishi, kompetensiyalar shakllanishi hamda ijtimoiy adolatni ta’minlash orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu bog‘liqlik ARMlarni oliy ta’lim sifati boshqaruvining strategik tarkibiy qismi sifatida qarashga asos bo‘lib, keyingi boblarda ularning faoliyatini takomillashtirish va samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy mexanizmlarni ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Axborot-resurs markazlarining oliy ta’lim sifati bilan uzviy bog‘liqligi ularning faoliyati samaradorligini aniq va o‘lchab bo‘ladigan ko‘rsatkichlar asosida baholash zaruratini yuzaga keltiradi [5]. ARM faoliyati samaradorligini baholash nafaqat ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilish, balki ta’lim sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan strategik choralarni belgilashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois zamonaviy oliy ta’lim tizimida ARM samaradorligini baholash kompleks, ko‘p darajali va natijaga yo‘naltirilgan yondashuv asosida amalga oshirilishi lozim.

Ilmiy tadqiqotlarda axborot-resurs markazlari faoliyati samaradorligi odatda resurs, jarayon va natija ko‘rsatkichlari majmui orqali baholanadi. Bunday yondashuv ARM faoliyatining barcha asosiy yo‘nalishlarini qamrab olish, ularning ta’lim jarayoniga ta’sirini tizimli ravishda aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli ta’lim muhitiga integratsiyalashuv sharoitida ARM samaradorligini faqat fond hajmi bilan emas, balki xizmatlar sifati, foydalanish darajasi va ta’lim natijalariga qo‘shgan hissasi bilan baholash dolzarb hisoblanadi.

ARM faoliyati samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichlar qatoriga axborot resurslari bilan ta’minlanganlik darajasi, ulardan foydalanish intensivligi, foydalanuvchilar qoniqish darajasi hamda ta’lim sifati natijalariga ta’sir etuvchi omillar kiradi. Ushbu ko‘rsatkichlar orqali axborot-resurs markazlarining oliy ta’lim tizimidagi real o‘rni va samaradorligi aniqlanadi.

Quyidagi jadvalda ARM faoliyati samaradorligini baholashning asosiy ko‘rsatkichlari tizimli ravishda keltiriladi (2-jadval).

2-jadval. Axborot-resurs markazlari faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari[3]

| Ko‘rsatkichlar guruhi | Baholash mezonlari | O‘lchov shakli | Ta’lim sifati bilan bog‘liqligi |
|---|---|---|---|
| **Resurs ko‘rsatkichlari** | O‘quv va ilmiy adabiyotlar yetarliligi | Kitob yoki elektron resurslar soni | Ta’lim mazmunining dolzarbligi |
| **Raqamli resurslar** | Elektron bazalar va platformalar ulushi | % yoki son | Mustaqil ta’lim imkoniyatlari |
| **Foydalanish faolligi** | ARM xizmatlaridan foydalanish darajasi | Tashriflar soni | Talabalar faolligi |
| **Xizmatlar sifati** | Axborot xizmatlarining tezkorligi | So‘rov bajarilish vaqti | Ta’lim jarayoning uzluksizligi |
| **Axborot savodxonligi** | Trening va seminarlar soni | Tadbirlar soni | Kompetensiyalar rivoji |
| **Foydalanuvchilar qoniqishi** | Talaba va o‘qituvchilar bahosi | So‘rovnoma natijalari | Ta’lim muhiti sifati |
| **Ilmiy faoliyatni qo‘llab-quvvatlash** | Ilmiy resurslardan foydalanish | Yuklab olishlar soni | Ilmiy natijadorlik |
| **Ijtimoiy ko‘rsatkichlar** | Teng kirish imkoniyati | Foydalanuvchilar ulushi | Ijtimoiy adolat |
| **Natijaviylik** | ARM xizmatlarining ta’lim natijalariga ta’siri | Reyting, baholar | Oliy ta’lim sifati |

Bizning fikrimizcha, Axborot-resurs markazlari faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichlari oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ARM xizmatlarining rivojlanishi ta’lim mazmuni, jarayon va natijalarning yaxshilanishiga xizmat qiladi. ARM faoliyatini ushbu ko‘rsatkichlar asosida baholash oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini boshqarishning ilmiy asoslangan mexanizmini shakllantirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqotlarimiz natijasida Axborot-resurs markazlarining zamonaviy oliy ta’lim tizimidagi o‘rni va ahamiyati tubdan o‘zgargani ko‘rsatildi. ARMlar an’anaviy kutubxona modelidan chiqib, ta’lim jarayonining axborotiy, pedagogik va ijtimoiy tarkibiy qismlarini birlashtiruvchi kompleks institut sifatida shakllanmoqda. Ularning rivojlanish bosqichlari va hozirgi tendensiyalari oliy ta’lim sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortib borishi bilan uzviy bog‘liq ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqotlarimiz natijalari shuni ko‘rsatadiki, Axborot-resurs markazlarining ta’lim jarayonidagi asosiy vazifalari o‘quv va ilmiy axborot bilan ta’minlash, mustaqil ta’limni qo‘llab-quvvatlash, axborot savodxonligi va raqamli kompetensiyalarni shakllantirish hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini axborot jihatdan ta’minlash orqali namoyon bo‘ladi. Ushbu vazifalarning samarali bajarilishi ta’lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatib, oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, ARM faoliyati va oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik resurs ta’minoti, ta’lim jarayonining samaradorligi, talabalarning kompetensiyalari va ijtimoiy adolat mezonlari orqali namoyon bo‘lishi aniqlandi. ARMlar ta’lim resurslariga teng va qulay kirish imkoniyatini yaratish orqali ta’lim sifati bilan bir qatorda uning ijtimoiy mohiyatini ham amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Bu holat Axborot-resurs markazlarini oliy ta’lim sifatini boshqarishning muhim institutsional mexanizmi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


1. Maxmudov M.X. Kutubxona-axborot faoliyatini boshqarish: darslik. – Toshkent: TDMI, 2009. – 320 b.
2. Nurqulova G.E. Kutubxonachilikning taraqqiyot bosqichlari // Academic Research in Educational Sciences. – 2022. – T.3, №1. – B. 1167–1174.
3. Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi: 1-qism. – Toshkent: Adolat, 2004. – 108 b.
4. Oxunjonov E. Vatan kutubxonachiligi tarixi: 2-qism: darslik. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008. – 308 b.
5. Axunjanov E. Kutubxonashunoslik, arxivshunoslik, kitobshunoslik: nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2011. – 520 b.
6. Qosimov M., Eshmurodov A. Ta’lim sifatini oshirishda innovatsion kutubxonalarning ahamiyati: metodik qo‘llanma. – Toshkent: Yetakchi nashriyoti, 2024. – 32 b.
7. O‘zbekiston axborot-kutubxona muassasalari faoliyatining Milliy model standarti. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2019. – 132 b.
8. Pirmedova X.M. Axborot-resurs markazlari faoliyati va oliy ta’lim sifati ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari: maqola. – Toshkent, 2025.


3 Muallif ishlanmasi

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta’limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 2**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



“Muhandislik va iqtisodiyot” jurnali 26.06.2023-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod**
**tumani 15-mavze 19-uy**